

AMORPHA FRUTICOSA L. O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIYASI VA DORIVOR XUSUSIYATLARI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1012>

G.J.Abdiniyazova

QQDU Biologiya fakulteti Dorivor o'simliklar agroekologiyasi va introduktsiyasi kafedrası dotsenti

X.B.Izbasxanova

70811100-Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs
magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada amorfa o'simligining botanik tavsifi, tarqalishi, kimyoviy tarkibi, dorivor xususiyatlari, xom ashyosi, dorivor preparatlari boyicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o'simlik mevalari (urug'lari) va gullari tibbiyotda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda amorfadan fruticin preparati olingan va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etilgan. Kardiotonik vosita sifatida yurak-qon tomir turli xil nevroitik holatlarda, yurak-qon tomir tizimi amorfa mevalarida yara bitkazuvchi xususiyatlar aniqlangan, neyrogen tinchlantiruvchi vosita sifatida keng qo'llanilishi haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Amorpha fruticosa L., Fabaceae, buta, botanik tavsifi, dorivor xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, xom ashyosi, tarqalishi.*

ANNOTATSIYA

The article provides information on the botanical description, distribution, chemical composition, medicinal properties, raw materials, and medicinal preparations of the amorphous plant. Also, the fruits (seeds) and flowers of the plant are of great importance in medicine. In Uzbekistan, the drug fruticin was obtained from amorph and introduced into medical practice. As a cardiotonic agent, wound-healing properties have been identified in various neurotic conditions of the cardiovascular system, in the amorphous fruits of the cardiovascular system, and data on its widespread use as a neurogenic sedative have been analyzed.

Key words: *Amorpha fruticosa L., Fabaceae, shrub, botanical description, medicinal properties, chemical composition, raw materials, distribution.*

KIRISH


Butasimon amorfa– *Amorpha fruticosa L.* Amorfa o'simligi Dukkakdoshlar–*Fabaceae* oilasiga mansub bo'lib, O'zbekistonga introduksiya qilingan. Balandligi 2-3 m gacha yeta digan sershox buta. Barglari (20-25 ta bargchali) murakkab bo'lib, bandi yordamida poya va shoxlariga ketma-ket joylashgan. Barg bo'lakchalari – bargchalari ingichka ellipssimon yoki cho'ziq ellipssimon shaklda. May da xushbuy, to'qqizil-binafsha rangli gullari shingil gulto'plamini hosil qiladi. Mevasi – bir yoki ikki urug'li, cho'ziqrok dukkaq, iyunda gullaydi. Ular manzarali buta sifatida Markaziy Osiyo va Rossiyaning janubiy mintaqalarida ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida o'stiriladi. Amorfaning bargi bilan urug'i xalq tabobatida ishlatiladi. Urug'i tarkibida rotenoidlarga kiradigan amorfin va amorfol glikozidlari, 13% moy vaboshqa biologik faol moddalar bor [1]. May - iyun oylarida gullaydi. Gullash 25 kun davom etadi [1]. Mevasi sentyabrda yetiladi.

Buta amorfasi ajoyib yem-xashak o'simligi bo'lib, bargi ko'p va ozuqa moddalariga boy. Shoxlari va barglarini to'g'ridan-to'g'ri ishlatish yoki o't uniga aylantirish mumkin. Buta amorfasi havo quritilgan har 500 kg bargi tarkibida 12,8 kg xom protein, 15,5 kg xom yog', 5 kg xom kletchatka, 209 kg azotsiz ekstraktiv moddalar mavjud. Xom protein miqdori bedaga nisbatan

125% ni tashkil etadi. Quruq barglardagi almashinmaydigan aminokislotalar miqdori: lizin 1,68%, metionin 0,09%, treonin 1,03%, izoleysin 1,11%, gistidin 0,55%, leysin 1,25% ni tashkil etadi

Buta amorfasi yuqori hayotchanlikka va noqulay sharoitlarga yuqori chidamlilikka ega, kasalliklarga chalinmaydi, lekin barglari xaltacha qo‘ng‘izi tomonidan shikastlanishi mumkin. Bunday hollarda kimyoviy moddalar purkash yoki mexanik yig‘ishni qo‘llash mumkin. Buta amorfasi quruq va sovuq iqlimni xush ko‘radi, sovuqqa, qurg‘oqchilikka, namga, tuproq sho‘rlanishiga chidamli, shamol va qumga juda chidamli, stressga juda chidamli bo‘lib, cho‘l yonbag‘irlarida, yo‘l bo‘ylarida, daryo qirg‘oqlarida va sho‘rlangan tuproqlarda o‘sa oladi. Buta shaklidagi amorfa odatda urug‘idan va tupining bo‘linishidan ko‘payadi. Sovuqqa chidamliligi yuqori, qurg‘oqchilikka juda chidamli, yog‘in 200 mm atrofida bo‘lgan joylarda o‘sa oladi. Suv bosishiga ham ma‘lum darajada chidamli, suv bosganda ham bir oy davomida nobud bo‘lmaydi. Yaxshi yorug‘likni talab qiladi. Tuproqqa talabchan emas [3].

O‘zbekistonda amorfadan Fruticin preparati olingan va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etilgan. Amorfanning ushbu dorivor preparati – frutitsin tinchlantiruvchi va kardiotonik vosita sifatida yurak-qon tomir (yurak-tomir nevrozi, paroksizmal taxikardiya) kasalliklarda qo‘llashga tavsiya etiladi



● Mahalliy ko‘rinish ● Madaniylashtirilgan tur ● Invaziv tur ● Introduksiya qilingan

Tarqalish areallari

Buta amorfasi qumlarni mustahkamlovchi va shamoldan himoya qiluvchi o‘rmon mintaqalarini yaratish, yonbag‘irlarni eroziyadan himoya qilish uchun ishlatiladi, sho‘rlangan va ishqorli tuproqlarni ko‘kalamzorlashtirish uchun kashshof tur hisoblanadi. Shamolga chidamliligi yuqori, tez o‘sadi, vegetatsiya davri uzoq, barglari qalin va zich bo‘lib, shamoldan himoyalangan o‘rmon mintaqalarida zich ekish uchun afzal tur hisoblanadi. Shox-shabbasi juda zich, yog‘in-sochinni yaxshi tutib qoladi, kuchli novda hosil qiladi, ildiz tizimi keng, yon ildizlari ko‘p, tez o‘sadi, kasallik va zararkunandalarga chidamli, tuganaklari bor, tuproqni yaxshilaydi, suv va tuproqni yaxshi saqlaydi.

XULOSA

Buta amorfasi barglaridan tibbiyotda foydalanish mumkin. Ularning ta‘mi biroz achchiq bo‘lib, salqinlik xususiyatiga ega. Namlikni haydash va shishlarni bartaraf etish xususiyatiga ega. Abssess, ekzema, kuyish va kuydirilgan joylarni davolashda qo‘llaniladi. Buta amorfasi tibbiyotda qo‘llanilishi uning tarkibida neyrotrop va kardiotrop ta‘sirga ega bo‘lgan rotenoid glikozid amorf in mavjudligi bilan bog‘liq. O‘simlik mevalarining biologik faolligi uning tarkibidagi flavonoidlar, asosan, amorf ining farmakologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Amorf in asosan neyrotrop ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni shartli reflektor faoliyatni tormozlaydi. Amorf in preparatlarini qabul qilish turli nevroitik holatlarda (paroksizmal taxikardiya, vegetativ-tomir distoniyasi, yurak-qon tomir



tizimi nevrozlari) ko'rsatilgan. Shuningdek, amorfin tutqanoq analeptiklari (kamfora, korazol, strixnin) ta'sirini susaytiradi va uyqu dorilarining ta'sirini kuchaytiradi. Amorfin asosida sedativ va neyroleptik dori vositasi "Frutitsin" tabletka shaklida yaratilgan bo'lib, u B guruhiga kiritilgan (faqat shifokor retsepti bilan beriladi) [2] .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.T.Berdiyev, E.T. Axmedov «Tabiiy Dorivor O'simliklar» 43-44-b, toshkent-2018.
2. <https://share.google/FJgXvG61n2WWeeTTz>
3. <https://www.plantarium.ru/lang/en/page/view/item/2675.html>